

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PhD.03/30.01.2020.I. 20.06 RAQAMLI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI ILMY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KAZAXBAEV ERKINBAY SARSEN ULI

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING
TADBIRKORLIK FAOLLIGINI OSHIRISH
(Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

UDK: 338.46:334.7-055.2(575.172)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

Kazaxbaev Erkinbay Sarsen uli

Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish
(Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida).....3

Казахбаев Еркинбай Сарсен ули

Повышение предпринимательской активности женщин в сфере услуг (на
примере Республики Каракалпакстан)29

Kazakhbayev Erkinbay Sarsen uli

Increasing women's entrepreneurial activity in the service sector (the case of the
Republic of Karakalpakstan)57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PhD. 03/30.01.2020.I. 20.06 RAQAMLI ILMY DARAJALAR
BERUVCHI ILMY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

KAZAXBAEV ERKINBAY SARSEN ULI

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING
TADBIRKORLIK FAOLLIGINI OSHIRISH
(Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2904 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va "Ziyonet" Axborot-talim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sauxanov Janibek Kazievich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matyakubov Umidjon Raximovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tadjiyev Bexzod Umidjanovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.01.2020.L20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 05 » iyun soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230113, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (302 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230113, Nukus shahri, CH.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel./faks: (998 61) 223-60-78, (998 61) 223-59-25, e-mail: info_karsu@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 29 » may kuni tarqatildi.

(2025-yil « 29 » may dagi 74 raqamli reestr bayonnomasi).



N.U.Arabov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari A.f.d., professor

R.B.Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

B.S.Qalmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotidagi sifat o'zgarishlari, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohalari mehnat bozorida kasblarning tobora intellektuallashib borishi sharoitida xotin-qizlar bandligini ta'minlash, tadbirkorligini rivojlantirish, intellektual mehnatga asoslangan zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish va munosib mehnat sharoitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Rivojlangan mamlakatlarda YAIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 65-80 %ni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalanishga sarflanayotgan mablag'lar hisssasi esa 3,0 %ni tashkil etmoqda. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlar ulushi 70,0 %, Shundan, xotin-qizlar ulushining 40-45 %i xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelmoqda"¹. Bugungi kunda, ayniqsa raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalari jadal rivojlanib borishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohaslarida xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga o'qitish va yangi ish o'rinlarini yaratish asosida tadbirkorlik faolligini oshirish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda iqtisodiyot sohaslarini samarali rivojlantirish va mehnat bozori muammolari bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida xizmat ko'rsatish sohaslarida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada xizmat ko'rsatish sohaslarida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tatqiq etish, xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga o'qitish va intellektual salohiyatini oshirishning tashkiliy-ta'limiy asoslarini rivojlantirish, ularning tadbirkorlik faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi mavzulardagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda xizmat ko'rsatish sohaslariga innovatsiyalarni joriy etish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, intellektual mehnatga asoslangan zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish asosida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda 36 mingta savdo va servis obyektlarini tashkil etish"² kabi vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish sohaslarida xotin-qizlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ularning tadbirkorlik faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 30-sentyabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 16-iyundagi PQ-4752-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 7-martdagi PQ-122-son

¹ <http://stats.oecd.org/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>

“Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-apreldagi 246-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Servis iqtisodiyotining shakllanishi, innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi, resurslardan samarali foydalanish, raqobatning shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik masalalarining fundamental asoslari xorijlik olimlar, jumladan, J.M.Keyns, M.Porter, Y.A.Shumpeter, K.X.Haksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan³.

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari xorijlik olimlar⁴, jumladan: Burmenko T.D., Romanovich V.K., Korobkova S.N., Kravchenko V.I., Orlov S.V., Pavlova I.P., Rummyanseva E.E. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Ushbu muammolarni o‘rganishga o‘zbekistonlik olimlardan⁵ Pardaev M.Q., Po‘latov M.E., Muxammedov M.M., Zaynalov D.R., Sauxanov J.K., Mirzaev Q.J., Tuxliev I.S., Arabov N.U., Utemuratova G.X. va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Портер М.Э. Конкуренция / пер. с англ. – М.: Изд. дом «Вильямс», 2005. – 808 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст]/ Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб., 2002. – 751 с.

⁴ Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб, 2002. – 751 с.; Романович В.К. Сервисная деятельность: учеб. пос.: под общ. ред В.К.Романович. / С.Н.Коробкова, В.И.Кравченко, С.В.Орлов, И.П.Павлова – 3-е изд. – СПб.: Питер, 2005. – 156 с.; Румянцева Е.Е. Новая экономическая энциклопедия: 4-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2011. - XII, 882 с. + DVD-R, - С. 717-718.

⁵ Pardaev M.Q., Isroilov J.I., G‘apparov A.Q. Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish muammolari. Risola. Samarqand. «Zarafshon», 2009. - 66 b.- 4,1 b.t.; Po‘latov M.E., Mirzaev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti).O‘quv qo‘llanma.T.: Fan va texnologiya, 2018. – 296 b.; Muxammedov M.M. va dr. Экономика торговли. Самарканд.1998.с.282; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарканд: 2009, №1. 70-77 с. – 0,6 б.т.; Sauxanov J.K., Zarikееva M.M. Evroaziya ekonomikalıq shólkeminiń salıq sistemasın integraciya processleri sharyatında salıstırılmalı talıqlaw. // QQDU Xabarnoması. – Нукус, 2023. № 2. – Б. (60) 109–111.; Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 332 b.; Arabov N.U., Artikov Z.S. Servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali//Samarqand, SamDU, № 1, 2021, 153-164 b.; Utemuratova G.X. Xizmat ko‘rsatish sohasida davlat-xususiy sherikligi rivojlanishining metodoligik asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. (DSc) diss. – Nukus, 2023.

Shuningdek, xotin-qizlarning ish bilan bandligi va tadbirkorligi masalalari iqtisodchi olimlardan⁶ Abdurahmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R.,

Bobonazarova J.X., Irmatova A.B. va boshqalarning ilmiy asarlarida o‘rganilgan.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirishning ayrim jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o‘z aksini topgan. Hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish bilan bog‘liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-2017-092718 raqamli “Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik” kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish hamda mualliflik yondashuvini shakllantirish;

xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanish xususiyatlari, shart-sharoitlari va omillarini aniqlash;

xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning xorij tajribasini tadqiq etish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish holatini tahlil qilish;

xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligiga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

xizmatlar bozorida xotin-qizlar tadbirkorligi holatini sotsiologik baholash;

xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;

xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorlik faolligini oshirish istiqbollari bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

⁶ Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: “FAN”, 2019. – 592 b.; Xolmo‘minov Sh.R., Xomitov K.Z., Arabov N.U., Xayitov A.B., Bobonazarova J.X., Irmatova A.B. Mehnat bozori rivojlanishining tahlili. Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya», 2016. – 308 b.; Bobonazarova J.X. Qishloq joylarida ayollar ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dis ... dok. ekon. nauk 08.00.10. – T, 2019.; Irmatova A.B. O‘zbekistonda xotin-qizlarning intellektual mehnat bilan bandligi: muammolar va imkoniyatlar // “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” analitik jurnal, №2-3, 2020

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligi faolligini oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash, regression-korrelyatsion tahlil va ekonometrik modellashtirish va prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda jarayonga ta‘sir etuvchi omillar tarkibida milliy xususiyatlar, ayollarning oiladagi mavqei va ijtimoiy vazifalarini e‘tiborga olgan holda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda raqamli kompetensiya va ijtimoiy normalar ustuvorligining maqsadga muvofiqligi asoslangan;

hududlar xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligining raqobatbardoshligini reyting baholash usuli xotin-qizlar tadbirkorligining raqobatbardoshlik salohiyati ko‘rsatkichlarining ahamiyatlilik darajasiga asosan o‘zgarish dinamikasining vazn koeffitsiyentlarini aniqlashga ko‘ra takomillashtirilgan;

xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirishda hududiy dasturni ishlab chiqqan holda, jumladan ularni intellektual mehnatga tayyorlovchi maxsus o‘quv markazlarini tashkil etish, ishsiz ayollar bandligini oshirishda ekspress-xizmatlar ko‘rsatish, tadbirkor xotin-qizlar o‘rtasida o‘zaro muloqot va shartnomalar tuzishga ixtisoslashtirilgan platformani joriy qilishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini barqaror rivojlanish va sohada xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi darajasini oshirishning 2030- yilgacha mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida “xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik” kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan;

xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish yondashuvi yangi tadbirkorlik tuzilmalari, innovatsion loyihalar, jamoat tashkilotlari bo‘yicha ma‘lumotlar bankini muntazam yangilab borish, xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish hamda xotin-qizlar o‘rtasida frilanserlik faoliyatini rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

xotin-qizlar tadbirkorlik faolligini oshirish, masofaviy bandlikni ta‘minlash asosida ish beruvchi, onlayn birjalar va xodimlar o‘rtasidagi uch tomonlama munosabatga asoslangan frilansing faoliyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning

rasmiy-manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi va uning hududiy tashkilotlarining statistik ma’lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, intellektual mehnatga asoslangan zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish, xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlarida ilmiy apparatni boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar uchun yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, sohada xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, sohaga oid me’yoriy hujjatlarni tayyorlash, sohani samarali rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish hamda “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Mehnat iqtisodiyoti” va “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlar iqtisodiyoti” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda jarayonga ta’sir etuvchi omillar tarkibida milliy xususiyatlar, ayollarning oiladagi mavqei va ijtimoiy vazifalarini e’tiborga olgan holda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda raqamli kompetensiya va ijtimoiy normalar ustuvorligining maqsadga muvofiqligi bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-2026-yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasining 2025-yil 18-fevraldagi 01/10-19-son ma’lumotnomasi). Ushbu sohada xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish omillarini aniqlash orqali ularning tadbirkorlik faolligini oshirish va rag‘batlantirish muhitini yaratishga muayyan darajada xizmat qilgan;

hududlar xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligining raqobatbardoshligini reyting baholash usuli xotin-qizlar tadbirkorligining raqobatbardoshlik salohiyati ko‘rsatkichlarining ahamiyatlilik darajasiga asosan o‘zgarish dinamikasining vazn koeffitsiyentlarini aniqlashga ko‘ra takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi tomonidan “Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-2026-yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasining 2025-yil 18-fevraldagi

01/10-19-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif hududlarda xotin-qizlar tadbirkorligi raqobatbardoshlik reytingini baholash asosida resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va tadbirkorlikni kengroq qamrab olish imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirishda hududiy dasturni ishlab chiqqan holda, jumladan ularni intellektual mehnatga tayyorlovchi maxsus o'quv markazlarini tashkil etish. ishsiz ayollar bandligini oshirishda ekspres-xizmatlar ko'rsatish, tadbirkor xotin-qizlar o'rtasida o'zaro muloqot va shartnomalar tuzishga ixtisoslashtirilgan platformani joriy qilishning maqsadga muvofiqligi taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi "Qoraqalpog'iston Respublikasida 2024-2026-yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlanti-rishning Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalangan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasining 2025-yil 18-fevraldagi 01/10-19-son ma'lumotnomasi). Taklif xotin-qizlar intellektual salohiyatini rivojlantirish, ularning tadbirkorlik faolligini oshirishda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va istiqbolli yo'nalishlarni amaliyotga joriy qilishda muayyan darajada xizmat qilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlanish va sohada xotin-qizlarning iqtisodiy faoligi darajasini oshirishning 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi tomonidan "Qoraqalpog'iston Respublikasida 2024-2026-yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasining 2025 yil 18 fevraldagi 01/10-19-son ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish 2030-yilga Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish tarmoqlarida band bo'lgan xotin-qizlar sonini 6,7 %ga va mintaqada faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlar sonini 8,2%ga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan respublika miqyosida 7 ta va xalqaro darajada 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan,

respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan oʻtganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat koʻrsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligi faoliyatining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmat koʻrsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida “xizmat koʻrsatish sohasida tadbirkorlik” kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik taʼrifi ishlab chiqilib, sohada tadbirkorlikning rivojlanish tamoyillari ishlab chiqilgan hamda xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanish xususiyatlari, shart-sharoitlari va omillari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, xizmat koʻrsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning xorij tajribasi tadqiq qilingan.

Xizmat koʻrsatish sohasining jadal rivojlanishi dunyoning aksariyat davlatlarining zamonaviy milliy iqtisodiyotiga xos boʻlgan global tendensiyadir. Bu jarayon mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi rolini belgilashda xizmat koʻrsatish sohasining ustuvor roli bilan bogʻliq. Xizmat koʻrsatish sohasida tadbirkorlikning oʻziga xos shunday xususiyatlari mavjudki, unda tadbirkor ijodiy qobiliyat, maxsus fikrlash va yuqori professionallikdan foydalanib, xaridorlarning aniq maqsadli auditoriyasiga eʼtibor qaratgan holda noyob xizmatlarni taqdim eta oladi. Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarning jadal oʻsib borishi sharoitida mavjud muammolarga yechim topishda professional yondashuv talab etiladi va bunda xizmat koʻrsatish sohasi samarali va tejamkor soha sifatida namoyon boʻladi. Umuman olganda, xizmat koʻrsatish korxonalarining samarali faoliyat yuritishi aholi turmush farovonligini oshirishga, mulkchilikning turli shakllarining paydo boʻlishiga, oʻrta sinfning shakllanishiga xizmat qiladi.

Turli olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning nazariy tahlili, ushbu jarayonlarning iqtisodiy mohiyatini belgilaydigan turli mezonlar boʻyicha mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimida sodir boʻlayotgan jarayonlarning tabiati toʻgʻrisida oʻz nuqtai nazarini bayon etish, xizmat koʻrsatish sohasida “tadbirkorlik” tushunchasini iqtisodiy kategoriya va iqtisodiy faoliyat turi sifatida tavsiflashning asosiy yondashuvlarini aniqlashga imkon berdi.

Xizmat koʻrsatish sohasida tadbirkorlik – bu bozorning yangi imkoniyatlarini kashf qilish, yangi xizmat turlarini yoʻlga qoʻyish, shuningdek, mavjud xizmatlarning sifati va samaradorligini oshirish orqali aholiga xizmat koʻrsatishni yaxshilash jarayonidir.

Xizmat koʻrsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati mamlakatning iqtisodiy oʻsishi (YaIM), ish bilan bandlik, innovatsiya va mahsuldorlik, turmush sifati, sotsial integratsiya, jamiyat rivojlanishi bilan izohlanadi (1-jadvalga qarang). Taʼkidlash lozimki, koʻpchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmat koʻrsatish sohasining ahamiyatini anglash bilan bir qatorda uning rivojlanishida hamon qator salbiy tendensiyalar kuzatilmoqda, jumladan: sifatsiz va koʻrsatilayotgan xizmatlarning tor doirasi, tarmoq ichidagi

nomutanosibliklarning mavjudligi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va aholining o'sib borayotgan ehtiyojlari o'rtasidagi nomutanosiblik, bozor vositalari va mexanizmlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi va boshqalar⁷.

1-jadval

Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati⁸

Ijtimoiy ahamiyati	Iqtisodiy ahamiyati
<p>Hayot sifati:</p> <p>Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi sog'liqni saqlash, ta'lim va jamoat transporti kabi asosiy xizmatlarni taqdim etish orqali hayot sifati yaxshilaydi. Ushbu xizmatlarga imkoniyat yaratish ijtimoiy farovonlik va rivojlanish uchun juda muhimdir.</p>	<p>Iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi:</p> <p>Xizmatlar sohasi ko'plab mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) asosiy hissa qo'shmoqda. Misol uchun, rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasi YaIMning 70% dan ortig'ini tashkil qiladi. Ushbu muhim hissa asosiy davlat xizmatlaridan tortib, ilg'or professional xizmatlarga bo'lgan xizmatlarning xilma-xilligi bilan bog'liq.</p>
<p>Ijtimoiy integratsiya:</p> <p>Xizmat ko'rsatish sohasi ko'pincha yanada moslashuvchan bandlik imkoniyatlarini taqdim etadi, bu ayniqsa cheklangan guruhlar, jumladan ayollar va nogironlar uchun foydali bo'lishi mumkin. Bunday inklyuzivlik ijtimoiy tenglik va vakolatlarni qo'llab-quvvatlaydi.</p>	<p>Ish bilan ta'minlash:</p> <p>Xizmat ko'rsatish sohasi bandlikning yetakchi manbai hisoblanib, ushbu sohada past malakalilardan tortib yuqori ixtisoslashgan lavozimlarga qadar keng ko'lamli ishga joylashish imkoniyatlari yaratiladi. Bu xilma-xillik ishchi kuchining katta qismiga, jumladan, boshqa sektorlarda ish topishda qiynalayotgan yoshlar va ayollar kabi segmentlarga erishishga yordam beradi.</p>
<p>Jamiyat rivojlanishi:</p> <p>Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik va o'rta korxonalar ko'pincha mahalliy jamoalar bilan mustahkam aloqaga ega bo'ladilar. Ular ish bilan ta'minlash, mahalliy iste'dodlarni rag'batlantirish va jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali mahalliy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi.</p>	<p>Innovatsiyalar va mahsuldorlik:</p> <p>Xizmatlar iqtisodiyot bo'ylab innovatsiyalar va mahsuldorlikni oshiradi. Xizmat ko'rsatish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) joriy etilishi samaradorlikni oshirishga va yangi biznes modellarini yaratishga olib keldi. Ushbu texnologik integratsiya iqtisodiy taraqqiyot va raqobatbardoshlikni oshiradi.</p>

Xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik zarur resurs bazasi nuqtai nazaridan quyidagi xususiyatlarga ega.

Birinchidan, xizmat ko'rsatish sohasi moddiy ishlab chiqarishga nisbatan xom ashyo va asosiy materiallarga kamroq bog'liqdir. Shu bilan birga, uning faoliyati katta ishlab chiqarish fondlarini talab qiladigan alohida tarmoqlari (uy-joy kommunal xo'jaligi, turizm va sanatoriy-kurort davolash) tabiiy resurslardan keng rekreatsion foydalanishga va boshqalarga yo'naltirilgan.

Ikkinchidan, ilmiy-texnika taraqqiyotiga turli xil moyillik bilan tavsiflangan xizmatlar assortimentining xilma-xilligi mavjud (sartarosh, ofitsiant, massaj

⁷ Федцов В.В, Федцов В.Г. Предпринимательство: сфера сервиса : учеб. пособие. – М.: Дашков и К°, 2002.

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

terapevtining xizmatlari texnologik taraqqiyotga eng kam ta'sir qiladi va asrlar davomida o'zgarishsiz qoladi).

Uchinchidan, xizmat ko'rsatishning tabiati ko'pincha ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi shaxsiy aloqa bo'lib, bu yuqori sifatli mehnat resurslari - mehnat jarayonining haqiqiy ijrochilarining ahamiyati va zarurligini belgilaydi. Xizmat ko'rsatadigan ko'plab sohalarda ishchilarning yuqori ta'lim va kasbiy malaka darajasi mehnatning ijodiy, intellektual mazmuni bilan belgilanadi. Bu xususiyat tannarxni belgilaydi, chunki ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatish bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

To'rtinchidan, ko'pincha iste'molchilarning o'zlari resurs bazasini tashkil qilib, xizmat ko'rsatish jarayonida bevosita ishtirok etadilar. Masalan, tibbiy xizmatni olayotganda bemor (iste'molchi) zarur ma'lumotlarni taqdim etishi, muammoni shakllantirishi, ayrim hollarda mutaxassislar bilan birgalikda mumkin bo'lgan yechimlarni muhokama qilishi va nihoyat, amalda bajarilishini ta'minlashi va natijani olishi lozim bo'ladi.

Beshinchidan, xizmat ko'rsatish sohasidagi resurs funksiyasining o'ziga xos xususiyati tadbirkorlik kapitalining yuqori aylanish tezligidir⁹.

Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning o'z-o'zini tartibga solish, raqobat muhiti shakllanishi, barqaror tadbirkorlikka erishish, tadbirkorlik ekotizimlari, kompetensiyalar, tadbirkorlik xulq-atvori shakllanishi, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, iste'molchilar talabini hisobga olish, xizmatlar sifatini oshirish, samarali marketing tadqiqotlari va brend strategiyasini joriy etish tamoyillari ishlab chiqildi.


Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni e'tiborga olish ko'proq xotin-qizlarni ushbu sohada biznes boshlashi va rivojlantirish uchun har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratishga yordam beradi. Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish mexanizmi tadbirkorlik motivatsiyasi, ta'lim olish imkoniyatlari, moliyaviy resurslar, me'yoriy-huquqiy muhit, raqamli kompetensiya, ijtimoiy normalar va texnologik transformatsiya bilan bog'liq shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va institusional omillarni guruhlash asosida takomillashtirildi (1-rasmga qarang).

Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha tasniflangan omillarning kengroq tavsifi quyidagilar iborat:

Ijtimoiy omillar. Madaniy me'yorlar va gender omillari: jamiyatda gender omillariga bo'lgan munosabatlar xotin-qizlarning tadbirkorlikda ishtirok etishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Gender tengligini qo'llab-quvvatlaydigan madaniyatlarda xotin-qizlar tadbirkorligi yuqori bo'ladi. Qo'llab-quvvatlash tarmoqlari: oila, do'stlar va professional tarmoqlarga kirish imkoni xotin-qizlar tadbirkorlariga zaruriy qo'llab-quvvatlash, maslahat va resurslarni taqdim etadi. Shaxs imiji (rol modellari): muvaffaqiyatli xotin-qiz tadbirkorlarning mavjudligi boshqa xotin-qizlarni o'z bizneslarini boshlashga ilhomlantiradi va rag'batlantiradi.

⁹ Лапушта М. Предпринимательство: учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2003.

Iqtisodiy omillar. Moliyaviy resurslar imkoniyati: moliyaviy resurslar va kreditlar mavjudligi juda muhimdir. Xotin-qizlar erkaklarga qaraganda moliyaviy resurslar imkoniyatiga ega bo'lishda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladilar. Iqtisodiy muhit: barqaror va o'sayotgan iqtisodiyot ko'proq biznes imkoniyatlarini taqdim etadi. Iqtisodiy inqirozlar xotin-qizlar mulkiga ega bo'lgan bizneslarga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bozor imkoniyatlari: xizmat ko'rsatish sohasida to'yinmagan bozorni (bozor nishasi) aniqlash xotin-qizlarni biznes boshlashga undashi mumkin.



1-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish omillari tasnifi¹⁰

Institutsional omillar. Hukumat siyosati va qo'llab-quvvatlash dasturlari: gender tengligini va tadbirkorlikni rag'batlantiradigan siyosatlar, grantlar,

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan

subsidiyalar va o'quv dasturlari xotin-qizlar mulkiga ega bo'lgan bizneslarni rivojlantirishga yordam beradi. Huquqiy-me'yoriy muhit: biznes boshlash va yuritishdagi to'siqlarni kamaytiradigan qo'llab-quvvatlovchi huquqiy-me'yoriy tizim ko'proq xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qiladi. Ta'lim va o'qitish: ayniqsa tadbirkorlik va biznes boshqaruvi uchun mo'ljallangan ta'lim va kasb-hunar o'qitish dasturlari, xotin-qizlarni zaruriy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Shaxsiy omillar. Tadbirkorlik motivatsiyasi: shaxsiy harakatlantiruvchi kuch, intilish, mustaqillik va o'zini-o'zi bajarish istagi xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilishi mumkin. Risklarni qabul qilish qobiliyati: risklarni qabul qilish va noaniqlikni boshqarish qobiliyati tadbirkorlik uchun muhimdir. Xotin-qizlarning xavf-xatarlarni qabul qilish qobiliyati ularning shaxsiy va oilaviy sharoitlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Ish va hayot muvozanati: ayollarda biznes mas'uliyati va oilaviy hayotni muvozanatlash qobiliyati juda muhimdir. Moslashuvchan ish tartiblari va qo'llab-quvvatlash tizimlari xotin-qizlarga ikkalasini ham boshqarishda yordam beradi.

Texnologik omillar. Raqamli savodxonlik: raqamli vositalar va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikma, xizmat ko'rsatish sohasida yangi imkoniyatlarni, masalan, elektron tijorat va onlayn xizmatlarni rivojlantiradi. Texnologiyaga kirish: texnologiyaga, jumladan internetga kirish imkoniyati va arzonligi biznes operatsiyalarini va bozorga kirishni yaxshilaydi. Marketing va reklama vositalari: ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimida optimallashtirish (SEO – search engine optimization) va onlayn reklama xotin-qizlar tadbirkorlariga o'z mahsulot yoki xizmatlarini reklama qilish va yangi mijozlar jalb qilish imkoniyatini beradi.

Jamiyat va ijtimoiy ta'sir omillari. Ijtimoiy korxonalar: ko'plab xotin-qiz tadbirkorlar jamiyat ehtiyojlarini va ijtimoiy muammolarni hal qiladigan bizneslarni yaratishga intilishadi. Jamiyat qo'llab-quvvatlashi: xotin-qizlarni mahalliy jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va tan olinishi ular uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Gender tengligi va ijtimoiy muvozanat: ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash gender tengligini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlash va ayollarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish ta'lim imkoniyatlari, moliyaviy resurslar, huquqiy muhit, tarmoqlar, ijtimoiy normalar va texnologiyalar kabi omillarga bevosita bog'liq. Ushbu omillarni to'liq qamrab oladigan yondashuvlarni amalga oshirish orqali manfaatdor tomonlar xotin-qizlar tadbirkorligi faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan va rag'batlantiradigan muhit yaratishi mumkin, bu esa iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga olib keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish turli yondashuv va usullar bilan qo'llab-quvvatlanadi, ularning har biri o'ziga xos afzalliklarga ega va o'ziga xos muammolarni bartaraf etishga ko'mak beradi. Shunga ko'ra, respublikada xizmat ko'rsatish sohasida

xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish tendensiyalari va modeliga xos jahonning yetakchi mamlakatlari tajribasidan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Dissertatsiya ishining **“Qoraqalpog‘iston Respublikasi xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish holati va ko‘rsatkichlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish holati hamda sohada xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, xizmatlar bozorida xotin-qizlar tadbirkorligi holatini sotsiologik baholash usullari tahlili amalga oshirilgan.

Mamlakatimizda tadbirkorlikning rivojlanishi ko‘pgina siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga bog‘liq. Ma’lumki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotining umumiy holati va rivojlanish darajasi tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlanish holati va yaratilgan shart-sharoitlarga bevosita bog‘liqdir. Xizmat ko‘rsatish sohasining jamiyatdagi rolining oshishi sohada yuqori o‘ringa ega bo‘lgan tarmoq korxonalarining jadal rivojlanishi, yangi texnologiyalar, zamonaviy asbob-uskunalar, yuqori malakali xodimlar va ilmiy ishlanmalar samaradorligi bilan belgilanadi.

2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasi va tarmoqlarida xizmatlar turlari bo‘yicha hajmi¹¹ (mlrd. so‘m)

Sohalar va tarmoqlar	Yillar					2019-2023 y.y.da o‘zgarish, (%)
	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami xizmatlar Shu jumladan:	5671,8	6520,3	8458,4	10595,3	12876,6	2,3 marta
Aloqa va axborotlashtirish	352,4	383,1	448,7	555,7	688,2	195,2
Moliya xizmatlari	1003,6	1287,9	1692,1	2232,0	2961,6	2,9 marta
Transport xizmatlari	1486,3	1673,4	2303,7	2867,0	3170,3	2,1 marta
Shu jumladan: avto-transport xizmatlari	807,5	860,5	1159,4	1275,4	1559,0	193,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	161,6	168,9	185,5	277,6	365,6	2,3 marta
Savdo xizmatlari	1323,1	1547,3	1913,8	2177,7	2710,8	2,0 marta
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	165,1	165,3	206,4	245,6	283,4	171,6
Ta’lim xizmatlari	302,2	369,1	568,1	694,2	801,6	2,6 marta
Sog‘liqni saqlash xizmatlari	65,1	74,3	99,9	127,9	161,8	2,5 marta
Ijara xizmatlari	124,8	140,1	159,4	204,5	246,7	197,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’irlash	174,5	189,1	239,9	301,5	371,3	2,1 marta
Shaxsiy xizmatlar	214,0	235,3	304,2	387,8	499,5	2,3 marta
Me’orchilik, muhan-dislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	109,9	89,8	92,5	165,7	183,8	167,2
Boshqa turdagi xizmatlar	189,2	196,7	244,2	358,1	432	2,3 marta

¹¹ Manba: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yonalishlaridan biri hisoblanadi. Mintaqada jami xizmatlar hajmi 2023-yilda 12876,6 mlrd. so‘mdan iborat bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2019-yilga nisbatan 2,3 martaga oshgan. Respublikada eng yuqori o‘sish so‘r‘atlariga ega tarmoqlar sifatida moliya xizmatlari (2,9 marta), ta‘lim xizmatlari (2,6 marta), sog‘liqni saqlash xizmatlari (2,5 marta), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,3 marta), shaxsiy xizmatlar (2,3 marta), transport xizmatlari (2,1 marta) hissasiga to‘g‘ri kelgan (2-jadvalga qarang).

Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorligi zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular turli sohalarda o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yib, iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Ular uchun ushbu sektor yangi imkoniyatlar eshigini ochib, ularni tadbirkorlikka jalb qilishning qulay platformasiga aylangan. Global va milliy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sohasi jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan hisoblanib, alohida sabablarga ko‘ra xotin-qizlarning ushbu sohada faoliyat yuritishi quyidagi afzalliklar va shart-sharoitlarga bog‘liqdir:

– xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga kirish uchun katta moliyaviy sarmoyalar talab qilinmaydi. Masalan, go‘zallik salonlari, to‘qimachilik xizmatlari, ta‘lim va konsultatsiya xizmatlari kabi sohalarda kichik sarmoyalar bilan biznes boshlash qulaydir;

– xizmat ko‘rsatish sohasidagi ko‘plab bizneslar oila va ish hayotini muvozanatlashda moslashuvchanlikni ta‘minlaydi. Bu, ayniqsa, oila mas‘uliyatlarini bajarish zarurati bo‘lgan xotin-qizlar uchun muhim;

– xizmatlar tarmog‘i ijodkorlikni talab qiladigan soha bo‘lib, bu xotin-qizlar uchun o‘z salohiyatini to‘liq ochish imkonini beradi. Bundan tashqari, ular ko‘pincha mijozlarga yaqin xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam beradigan bizneslarga qiziqish bildiradilar.

Республикада хотин-қизларнинг иқтисодий соҳаларда бандлигини тahlil қилadigan bo‘lsak, 2019-2023-yillar davomida ular bandidligining eng katta ulushi xizmat ko‘rsatish sohasi va qishloq xo‘jaligi sohaslariga to‘g‘ri kelmoqda. Biroq, qishloq xo‘jaligi sohasida xotin-qizlar bandidligi ulushi 5 yil davomida pasayish tendensiyasiga ega ekanligini kuzatish mumkin. Sanoat va qurilish sohaslarida xotin-qizlar bandidlik ulushida kichik tebranishlar mavjud bo‘lib, birgina sanoat sohasida ularning ulushi 2020-yilda 9,2 %ga oshgan bo‘lsada, 2021-yilda esa 8,6 %ga tushgan. Qurilish sohasida esa ushbu ko‘rsatkich 2019-yilda 1,1 %ni tashkil etib, 2023-yilda 1,4 %ga o‘sgan. Sanoat va qurilish sohalari esa odatda erkaklar band bo‘lishi yuqori bo‘lgan tarmoqlar hisoblanadi, ammo bu sohalarda ham xotin-qizlar bandidligi o‘sishi mumkin, chunki iqtisodiyotda bu sohalarning ahamiyati muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, jadval ma‘lumotlaridan qishloq xo‘jaligi va sanoatning ulushi kamayib, xizmatlar va savdo sohaslarining ulushi oshayotganini kuzatishimiz mumkin. Savdo sohasida xotin-qizlar bandidligi 2020-yilda oldingi yilga nisbatan 13,3 %ga pasaygan bo‘lsa-da , qolgan uch yil davomida o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2023-yilda 15,2 %ga oshgan. Bu o‘z navbatida iqtisodiy faollikning savdo sohasida ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Xizmatlar sohasida esa, xotin-qizlar bandligi ulushi 5 yil davomida ijobiy dinamik o‘shishga ega bo‘lib, 2019- yildagi 51,9 %dan 2023-yilda 53,4 %ga oshgan. Ushbu tahlillar natijasida aytish mumkinki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida umumiy iqtisodiy faoliyat tarkibida xizmatlar sohasidagi xotin-qizlar bandligi yuqori va muhim ahamiyatga ega (3-jadval).

3-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami band xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, jamiga nisbatan¹² (%)

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	24,6	24,4	23,3	22,3	21,1
Sanoat	8,9	9,2	8,6	8,8	8,9
Qurilish	1,1	1,1	1,2	1,2	1,4
Savdo	13,6	13,3	14,2	14,5	15,2
Xizmatlar	51,9	52,0	52,7	53,2	53,4

Qoraqalpog‘iston Respublikasida yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlarning soni va hududlar bo‘yicha ularning ulushini tadqiqot davri bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, jami mintaqa bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlarning soni 2019-yildagi 6095 nafardan 2023-yilda 6886 nafarni tashkil etib, 113,0 %ga o‘sgan. Nukus shahrida 2023-yilda ularning soni 1264 nafarni tashkil etib, mintaqada yillik o‘rtacha eng yuqori ulushni (18% atrofida) saqlab kelmoqda. Beruniy tumani xotin-qizlar YaTT sonida sezilarli o‘shish kuzatilmoqda: 2019-yilda 635 kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 890 kishini tashkil etib, jami xotin-qizlar YaTT tarkibida 12,9% ulushga ega. Bo‘zatov tumani yangi tashkil etilgan hudud bo‘lib, 2019-yilda ushbu ko‘rsatkich ko‘rsatilmagan. 2023-yilda bu hududda 58 nafar yakka tartibdagi xotin-qiz tadbirkor faoliyat yuritgan. To‘rtko‘l va Xo‘jayli tumanlarida yakka tartibdagi xotin-qiz tadbirkorlar soni dinamikasi nisbatan pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, jumladan, To‘rtko‘l 2019-yilda 727 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilda 620 kishiga pasaygan. Qora‘zak, Shumanay, va Bo‘zatov hududlari tadbirkorlar soni bo‘yicha eng past ulushga ega (2023-yilda mos ravishda 1,5%, 2,6% va 0,8%). Eng yuqori o‘shish kuzatilgan hududlar tarkibida Kegeyli tumani 2019-yildagi 208 kishidan 2023-yilda 334 kishiga yetib, ulushi 3,4%dan 4,9%ga oshgan. Shumanay tumanida yakka tadbirkor xotin-qizlar soni 2019-yilda 86 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 177 kishiga oshib, ulushi ikki barobarga yaqin ko‘paygan (4-jadvalga qarang).

Xizmatlar sohasida xotin-qizlar tadbirkorligining barqarorligi iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ayollar uchun qulay va imkoniyatlarni ta’minlaydi. Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshlik reytingini integral indeks usulida hisoblash iqtisodiy tahlilning zamonaviy uslublaridan biri hisoblanadi. Bu usul raqamli ma’lumotlarni matematik

¹² Manba: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

modellashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Tahlilning uslubiy asosi sifatida V.V. Merkuшов tomonidan taklif etilgan usul algoritmidan foydalandik¹³. Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

4-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlar soni (kishi) va ulushi¹⁴ (%)

Hududlar	2019 y.		2020 y.		2021 y.		2022 y.		2023 y.	
	kishi	ulushi	kishi	ulushi	kishi	ulushi	kishi	ulushi	kishi	ulushi
Jami	6095	100	5431	100	5737	100	6049	100	6886	100
Nukus sh.	1142	18,7	1103	20,3	1046	18,2	1101	18,2	1264	18,4
Amudaryo	508	8,3	453	8,3	327	5,7	350	5,8	415	6,0
Beruniy	635	10,4	608	11,2	774	13,5	837	13,8	890	12,9
Bo‘zatov	-	-	45	0,8	95	1,7	44	0,7	58	0,8
Qorao‘zak	104	1,7	91	1,7	88	1,5	92	1,5	101	1,5
Kegeyli	208	3,4	199	3,7	188	3,3	191	3,2	334	4,9
Qo‘ng‘irot	584	9,6	492	9,1	542	9,4	622	10,3	680	9,9
Qonliko‘l	88	1,4	127	2,3	95	1,7	99	1,6	180	2,6
Mo‘ynoq	134	2,2	128	2,4	109	1,9	109	1,8	139	2,0
Nukus t.	189	3,1	106	2,0	346	6,0	144	2,4	175	2,5
Taxiatosh	203	3,3	171	3,1	170	3,0	230	3,8	218	3,2
Taxtako‘pir	124	2,0	115	2,1	117	2,0	96	1,6	133	1,9
To‘rtko‘l	727	11,9	556	10,2	527	9,2	639	10,6	620	9,0
Xo‘jayli	630	10,3	513	9,4	505	8,8	607	10,0	593	8,6
Chimboy	345	5,7	321	5,9	374	6,5	397	6,6	444	6,4
Shumanay	86	1,4	87	1,6	76	1,3	105	1,7	177	2,6
Ellikqal‘a	388	6,4	316	5,8	358	6,2	386	6,4	465	6,8

1-bosqich. Raqobatbardoshlikni baholash uchun muhim ko‘rsatkichlar tanlanadi. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy barqarorlik, infratuzilma, innovatsion faoliyat, huquqiy muhit va biznesga qulaylik kabi mezonlarga asoslanadi.

2-bosqich. Tanlangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma‘lumotlar yig‘iladi. Bu ma‘lumotlar davlat organlari, xalqaro tashkilotlar yoki tadbirkorlar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar orqali olinishi mumkin.

3-bosqich. Reytingni hisoblash uchun indikatorlarni me‘yorlashtirish va ularning vazn og‘irligini belgilash talab etiladi. Bu yerda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning ahamiyatiga ko‘ra vazn beriladi.

4-bosqich. Har bir hudud uchun ko‘rsatkichlar yig‘iladi va ular asosida umumiy raqobatbardoshlik indeksi hisoblanadi. Keyin, natijalar o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkaziladi.

5-bosqich. Hisoblangan integral indekslar asosida hududlar ketma-ketligi aniqlanadi. Bu reyting tadbirkorlik muhitining qaysi hududlarda yaxshiroq ekanligini ko‘rsatadi.

¹³ Меркушов В.В. Интегральная оценка конкурентоспособности регионов – <http://sopssecretary.narod.ru>

¹⁴ Manba: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan

Hududning xotin-qizlar raqobatbardoshligini baholashda tanlangan ko'rsatkichlar o'lchov birliklari turlicha bo'lganligi sababli ikkinchi bosqichida, ularni taqqoslash uchun barcha ko'rsatkichlar normallashtiriladi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Z_{ij} = \frac{X_{ij} - X_{j\min}}{X_{j\max} - X_{j\min}}, \quad (1)$$

bu yerda, Z_{ij} - I - hududning j - ko'rsatkich normallashtirilgan qiymati, X_{ij} - I - hududning j - ko'rsatkichning dastlabki qiymati, $X_{j\min}$ va $X_{j\max}$ - j - ko'rsatkichning minimal va maksimal qiymatlari.

Keyingi bosqichda normallashtirilgan ko'rsatkichlar va ularning vazn koeffitsientlari asosida umumiy indeks hisoblanadi:

$$I = \sum_{j=1}^n W_j * Z_{ij}, \quad (2)$$

bu yerda, I - integral indeks, W_j - j - ko'rsatkichning vazn koeffitsiyenti, Z_{ij} - i - hududning j - ko'rsatkich bo'yicha normallashtirilgan qiymati.

Har bir ko'rsatkichning umumiy indeksdagi ahamiyati (vazn koeffitsiyenti) belgilanadi. Vazn koeffitsiyenti ekspert usuli yordamida ekspertlar tomonidan, tanlab olingan 8 ta ko'rsatkich 10 ballik shkala asosida baholanadi¹⁵.

$$V_j = \frac{\sum K_j}{\max \sum K_j} - \text{yordamchi koeffitsiyent},$$

$$W_j = \frac{V_j}{\sum V_j} - \text{vazn koeffitsiyenti}.$$

5-jadval

Hududiy xotin-qizlar tadbirkorligi raqobatbardoshlik reytingi¹⁶

Hududlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Nukus sh.	1	1	1	1	1
Qo'ng'iro't	2	3	2	2	2
To'rtko'l	3	2	3	3	4
Beruniy	4	4	4	4	3
Xo'jayli	5	6	5	5	5
Amudaryo	6	5	8	6	6
Chimboy	7	7	6	7	8
Ellikqal'a	8	8	7	8	7
Taxiatosh	9	10	10	9	9
Mo'ynoq	10	14	12	15	12
Nukus	11	11	9	10	10
Kegeyli	12	9	11	11	11
Qonliko'l	13	12	14	13	16
Qorao'zak	14	13	15	16	14
Taxtako'pir	15	16	16	12	13
Shumanay	16	15	13	14	15
Bo'zatov	17	17	17	17	17

¹⁵ https://studbooks.net/1465654/menedzhment/ekspertnyy_metod.

¹⁶ Muallif tomonidan hisoblandi.

Xotin-qizlar tadbirkorligi raqobatbardoshligi integral indeksi asosida hududlarning 5 yillik davr davomida reytingi ishlab chiqildi va bu hududlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish darajasi va imkoniyatlarini o'lchashga xizmat qiladi. Hududlarda xotin-qizlar tadbirkorligi raqobatbardoshlik reytingi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladigan muhim vosita bo'lib, u orqali hududiy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va tadbirkorlikni kengroq qamrab olish imkoniyatini yaratadi (5-jadvalga qarang). Jadvalda keltirilgan xotin-qizlar tadbirkorligi raqobatbardoshlik reytingini tahlil qiladigan bo'lsak, barqaror yetakchi hudud sifatida Nukus shahri barcha yillarda 1-o'rinni egallab, hududda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash darajasining yuqori ekanligini ko'rsatadi. Qo'ng'iroq tumani ham doimiy ravishda yuqori reytinglarda o'rin egallab, faqat 2020-yilda 3-o'rinda, boshqa yillarda 2-o'rinlarda barqarorlik darajasini saqlab qolgan.

To'rtko'l va Beruniy hududlarida raqobatbardoshlik reytingi 3 va 4-o'rinlarda tebranib turgan. Faqat 2020-yilda To'rtko'l tumanida raqobatbardoshlik reytingi 2-o'ringa ko'tarilgan bo'lsa-da, 2023-yilda Beruniy tumani reytingi (3-o'rin) To'rtko'lga (4-o'rin) nisbatan ko'tarilgan. Xo'jayli tumani so'nggi 3 yil davomida 5-o'rinni egallab, barqarorlikni saqlab kelmoqda. Amudaryo tumani o'rtacha hisobda 5-6 o'rinni egallagan bolsa-da, 2021-yilda oldingi yilga nisbatan 3 pogona pasaygan.

Chimboy va Ellikqal'a hududlari o'zaro pozitsiyalarni (7-8-o'rinlar) almashtirib, o'rta reytinglar oralig'ida harakat qilmoqda. Nukus tumani 2019-2020-yillarda 11-o'rinni egallab, qolgan yillarda Taxiatoş tumani bilan 9-10 o'rinlarda raqobatlashganligini kuzatish mumkin. Mo'ynoq tumani 2019-yildan 2023-yilgacha 10-12-o'rinlar oralig'ida o'zgarib kelgan, biroq 2022-yilgi pasayishdan keyin (15-o'rin) 2023-yilda 12-o'ringa 3 pog'onaga ko'tarilgan. Umuman olganda Nukus shahri xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha eng yaxshi natijalarga ega hudud hisoblanadi. Ammo qoloq hududlarda (Bo'zatov, Shumanay, Taxtako'pir, Qorao'zak, Qonliko'l, Kegeyli) kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar va rag'batlantirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur. Jumladan, Bo'zatov tumani barcha yillarda 17-o'rinni egallab, hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha eng past ko'rsatkichni saqlab kelmoqda. Bo'zatov tumani yangi tashkil etilganligi bois, barcha yillarda oxirgi o'rinni egallagan va bu hududda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar talab etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida hududlari xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligi holatini aniqlash va baholash maqsadida sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, hududlar xizmatlar sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini samarali rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. SHunga ko'ra, xizmatlar bozorida xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish va gender tengligini hisobga olgan holda kredit stavkalarini pasaytirish; tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi maxsus trening va ta'lim dasturlarini tashkil etish; internet tarmog'iga ulanish imkoniyatlarini yaxshilash va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha o'quv

resurslarini kengaytirish; ijtimoiy stereotiplarni yengish uchun keng qamrovli kampaniyalar tashkil etish; davlat tomonidan subsidiya va soliq imtiyozlari orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish.

Dissertatsiya ishining **“Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish mexanizmlari va istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlanib, sohada xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish mexanizmlari takomillashtirilgan hamda xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish istiqbollari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Respublikamizda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsiyalarni joriy etish, xotin-qizlar faolligini oshirish, zamonaviy ish o‘rinlarini yaratish, munosib mehnatni rag'batlantirish va xotin-qizlar intellektual mehnatini kengaytirish kabi tadbirlarni amalga oshirish lozim. SHu jihatdan, xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish yondashuvi yangi tadbirkorlik tuzilmalari, innovatsion loyihalar, jamoat tashkilotlari bo‘yicha ma'lumotlar bankini muntazam yangilab borish, xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish hamda xotin-qizlar o‘rtasida frilanserlik faoliyatini rivojlantirish asosida takomillashtirildi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati doirasida belgilangan vazifalarga muvofiq dasturni ishlab chiqish quyidagi yo‘nalishlardan iborat tadbirlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi:

I. Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish dasturining asosiy maqsadi va vazifalari. Dasturni ishlab chiqishning zarurati xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish vazifalari turli xil omillar ta’siri bilan belgilanib, ushbu yo‘nalishdagi yondashuvlar xilma xildir. Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish dasturini realizatsiya qilish maqsadi – xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish yo‘llari va uslublarini ishlab chiqishdan iborat.

II. Ishsiz ayollar (xotin-qizlar)ni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish: 2.1. SHahar va tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari tomonidan ishsiz xotin-qizlarni qayta o‘qitishni turli dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. 2.2. Kasbga o‘rgatish o‘quv kurslarining maxsus o‘qitish dasturlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish uchun subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratish. 2.3. Hududlarda ishsiz ayollar soni va ularni ishga joylashtirish monitoringini o‘tkazish, yosh mutaxassis xotin-qizlar uchun bo‘sh ish o‘rinlari tuzilmasi haqida ma'lumotlar bankini shakllantirish. 2.4. Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va ularning bandligini ta'minlash maqsadida turli xil innovatsion-investitsion loyihalarni joriy qilish. 2.5. Ish bilan bandlik xizmati tomonidan ishsiz ayollarni ishga joylashtirishga ko‘maklashish samaradorligini oshirish maqsadida, ularga ekspress-xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha markaz tashkil qilish.

III. Xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash va intellektual salohiyatini oshirish tizimini takomillashtirish: 3.1. Hududiy mehnat bozoridagi holat va prognoz ko‘rsatkichlari asosida ishsiz xotin-qizlarni o‘qitishning mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqish. 3.2. Xotin-qizlarni talab yuqori kasblarga

o'qitish va ularda yangi kompetensiyalarni hamda tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish. 3.3. Xotin-qizlarning zamonaviy kasblarni egallashi maqsadida Internet xizmatlari, axborot texnologiyalari infratuzilmasidan foydalanish bo'yicha imkoniyatlarini oshirishga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqish. 3.4. Xotin-qizlarning STEM yo'nalishlari bo'yicha xorijiy ta'lim muassasalarida ta'lim olishi malaka oshirishiga sharoitlar yaratish. 3.5. Xotin-qizlarning intellektual mehnatga tayyorlovchi maxsus o'quv markazlarini tashkil etish.

IV. Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. 4.1. Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalar va ilmiy tadqiqot ishlanmalariga e'tiborini qaratish maqsadida hududlarda turli xil innovatsion loyihalar va startaplar bo'yicha tanlovlar o'tkazish. 4.2. Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, mahalliy hokimiyat tarkibida tashkil etilgan innovatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmalari tomonidan xotin-qizlar tadbirkorligi sohasida innovatsion faoliyatni realizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlar samaradorligini oshirish. 4.3. Hududda innovatorlar va investorlar o'rtasida bo'g'in bo'lib xizmat qiladigan innovatsion faoliyatni axborot-maslahat bilan ta'minlash tizimini shakllantirish. 4.4. Hududlarda texnoparklar, biznes-inkubatorlar, o'quv va biznes markazlari, texnologiyalar transferi markazlari, biznes-inkubatorlar va boshqa ixtisoslashtirilgan tuzilmalarni yaratish orqali innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. 4.5. Tadbirkor xotin-qizlar o'rtasida ularning o'zaro muloqot qilishlari va texnologiyalar almashishlari, yangi shartnomalar va bitimlar tuzishlari mumkin bo'lgan platformalarni yaratish.

V. Sohada xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha innovatsiyalarni joriy etish va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish: 5.1. YUqori qo'shilgan qiymatga ega xizmat ko'rsatish sektorlari va kelajakda o'sish salohiyati yuqori bo'lgan kasblarda, jumladan, pullik xizmat ko'rsatish, STEMM (Science, Technology, Engineering, Mathematics, and Medicine) va "yashil ish o'rinlari"da xotin-qizlar tadbirkorligi va innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlash. 5.2. Gender tengligi bo'yicha biznes va innovatsiya siyosati va dasturlari uchun mas'ul bo'lgan asosiy manfaatdor tomonlarning salohiyatini rivojlantirish. 5.3. Tadbirkorlikka yondashuvlar xilma-xilligini, shu jumladan kooperativlar va boshqa ijtimoiy hamda innovatsion korxonalarini tashkil etish asosida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha kadrlar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. 5.4. Qaror qabul qiluvchilar oldida ularni targ'ib qilish orqali xotin-qizlar tadbirkorlik birlashmalarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash. 5.5. Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning hududiy salohiyat darajalariga qarab soliq imtiyozlari berish va turli xil moliyaviy qo'llab-quvvatlash usullarini joriy etish.

VI. Sohada xotin-qizlarning oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish. 6.1. Yangi iqtisodiy hududlarda oilaviy tadbirkorlik obyektlarida zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarida tijorat banklarining imtiyozli kreditlari hisobidan xotin-qizlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish. 6.2. Oilaviy tadbirkorlik korxonalarini

mablagʻlari hisobidan qishloq xoʻjaligini dehqonchilik va chorvachilik sohalari boʻyicha qishloq xotin-qizlari uchun yangi ish oʻrinlarini tashkil etish. 6.3. Xotin-qizlarning oilaviy tadbirkorligini rivojlantirishda ularning qiziqishlarini psixologik jihatdan oʻrganish. 6.4. Xizmat koʻrsatish sohasida xotin-qizlarning oilaviy tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirish maqsadida tadbirkorlikka oʻqitish sifatini oshirish. 6.5. YOsh tadbirkor xotin-qizlar uchun yangi ish oʻrinlarini tashkil etishni iqtisodiy (moliyaviy, soliq imtiyozlari berish, foizsiz kreditlar, qoʻshimcha er maydonlari, foydalanilmayotgan quvvatlarni ijaraga berish va boshqa usullar) qoʻllab-quvvatlash.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida xotin-qizlar tadbirkorlik faolligini oshirish va ayollar bandligini taʼminlashning istiqboldagi prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Prognoz qiymatlarini ishlab chiqish uchun 2011-2023 yillar maʼlumotlaridan foydalanildi. Xizmat koʻrsatish tarmoqlarida band boʻlgan xotin-qizlar sonini prognoz qiymatlarini hisoblash uchun quyidagi modeldan foydalanishni maqbul variant sifatida taklif qilamiz.

$$X_3 = 73857,4 + 0,61 * \varepsilon_{t-1} + 2018,7 * t, \quad (3)$$

$$z = (47,32) \quad (1,82) \quad (10,48) \quad R^2 = 0,95$$

bu yerda, X_3 - Qoraqalpogʻiston Respublikasida xizmat koʻrsatish tarmoqlarida band boʻlgan xotin-qizlar soni (kishi).

Modelning umumiy mosligini koʻrsatish uchun taqdim qilingan determinatsiya koeffitsiyenti 0,95m tashkil qilgani holda ishonchlilik darajasi yuqoriligini asoslaydi.

Shuningdek, xizmat koʻrsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tarkibida ishlayotgan xotin-qizlar sonini prognoz qiymatlarini hisoblash uchun quyidagi model ishlab chiqildi.

$$X_5 = 49931,7 + 2018,7 * t + 11121 * D_{X5}, \quad (4)$$

$$z = (92,99) \quad (13,37) \quad (10,86) \quad R^2 = 0,98,$$

bu yerda, X_5 - Qoraqalpogʻiston Respublikasida xizmat koʻrsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tarkibida ishlayotgan xotin-qizlar soni (kishi); D_{X5} - 2023 yildagi keskin oʻzgarishni hisobga olish uchun kiritilgan qoʻshimcha omil.

Olingan natijalar mazkur model asosida keyingi yillar uchun prognoz qiymatlarini ishlab chiqish eng maqbul variant ekanligini asoslaydi. Naitjada, prognoz qiymatlari quyidagi koʻrinishga ega boʻldi (6-jadvalga qarang).

Qoraqalpogʻiston Respublikasida xizmat koʻrsatish tarmoqlarida band boʻlgan xotin-qizlar soni 2028-yilga borib 110195 kishiga yetgani holda mavjud holatdagiga nisbatan 1,09 barobarga oshadi, boshqacha qilib aytganda oʻrtacha oʻsish surʼati 1,7 foizni tashkil qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida band bo‘lgan xotin-qizlar sonining prognoz qiymatlari¹⁷

For 95% confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$

Yillar	X3	O‘shish sur‘ati	Standart xatolik	X5	O‘shish sur‘ati	Standart xatolik
2024	102752	101,7	1651,98	74711	101,3	1235,93
2025	104139	101,3	1936,92	75686	101,3	1242,38
2026	106157	101,9	1936,92	76662	101,3	1253,04
2027	108176	101,9	1936,92	77637	101,3	1267,82
2028	110195	101,9	1936,92	78613	101,3	1286,57

Xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tarkibida ishlayotgan xotin-qizlar sonining prognoz davrida o‘shish sur‘atlarini barqarorlashishi, biroq oldingi davrlardagi o‘rtacha o‘shish sur‘atiga nisbatan pasayishi kuzatiladi. Ya’ni, oldingi yillarda yuqori o‘shish bilan bir qatorda pasayishlar ham kuzatilgan bo‘lsa, prognoz davrida faqat ijobiy o‘shishi kuzatiladi. Natijada, xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tarkibida ishlayotgan xotin-qizlar sonini 2028-yilga borib, 78613 kishiga yetib, 2023-yildagiga nisbatan 1,07 barobarga oshishi ta’minlanadi.

Xotin-qizlar bandligini ta’minlashda ularni nafaqat ishchi sifatida balki, tadbirkor, boshqaruvchi sifatidagi rolini ham oshirish talab qilinadi. Shu sababdan tadbirkor ayollar sonining Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi o‘zgarish dinamikasini hisobga olgan holda keyingi yillardagi o‘shish sur‘atlarini qarab chiqamiz. Buning uchun ARMAX modelidan foydalanish optimal variant ekanligini ko‘rsatdi. Natijada quyidagi model tanlab olindi.

$$X_6 = 1817,0 + 0,67 * \varepsilon_{t-1} - 98,7 * t + 14,8 * t^2, \quad (5)$$

$$z = (11,97) \quad (2,55) \quad (-1,99) \quad (4,30) \quad R^2 = 0,94,$$

bu yerda, X_6 - Qoraqalpog‘iston Respublikasida ayollar egalik qilayotgan kichik biznes subyektlari soni (birlik).

Yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanuchi ayollar sonini prognoz qilish uchun quyidagi model ishlab chiqildi.

$$X_7 = 32,6 * t - 989,8 * D_{X7}, \quad (6)$$

$$z = (-5,84) \quad (5,50) \quad R^2 = 0,90,$$

¹⁷ Manba: muallif ishlanmasi

bu yerda, X_7 - Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlar soni (kishi); D_{X7} – 2020-yilda pandemiya hisobiga kiritilgan cheklovlar oqibatida vujudga kelgan pasayishni hisobga olish uchun kiritilgan qo‘shimcha omil.

Ushbu modellar asosida tadbirkor ayollar sonining prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Prognozlar keyingi yillarda mintaqada ayollar egalik qilayotgan kichik biznes subyektlari sonini yuqori sur‘atlardagi o‘shishini ko‘rsatmoqda (7-jadval).

7-jadval

Qoraqalpog‘istonda tadbirkor ayollar sonining prognoz qiymatlari¹⁸

For 95% confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$

Yillar	X6	O‘shish sur‘ati	Standart xatolik	X7	O‘shish sur‘ati	Standart xatolik
2024	3449	107,7	105,797	7342	106,6	158,802
2025	3657	106,0	127,891	7831	106,7	224,581
2026	4015	109,8	127,891	8352	106,7	275,054
2027	4404	109,7	127,891	8906	106,6	317,605
2028	4821	109,5	127,891	9492	106,6	355,093

Ayollar egalik qilayotgan kichik biznes subyektlari soni o‘shish sur‘ati 6,0 bilan 9,8 foiz atrofida o‘zgaradi va o‘rtacha o‘shish sur‘ati 8,5 fozni tashkil qiladi. Umumiy hisobda 2028-yilda ayollar egalik qilayotgan kichik biznes subyektlari soni 4821 birlikka etib 2023-yildagiga nisbatan 1,5 barobarga oshadi. Shuningdek, faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlar sonini ham barqaror o‘shish sur‘atlari ta‘minlanadi. Ya‘ni, 2028-yilga borib ular soni 9492 kishiga yetishi kutilmoqda, bu degani keyingi besh yillikda ular sonidagi o‘rtacha o‘shish sur‘ati 6,6 foizni tashkil qiladi.

Ayollar bandligini xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar bandligini ta‘minlashga ta‘sirini baholash masalasi ham qarab chiqildi.

$$\ln(X_5) = 5,06 + 0,37 * \ln(X_6) + 0,35 (X_7), \quad (7)$$

$$t = (9,64) (11,88) \quad (4,35) \quad R^2 = 0,98.$$

Model natijalarining ko‘rsatishicha mintaqada ayollar egalik qilayotgan kichik biznes subyektlari sonini bir foizga oshishi xizmat ko‘rsatish sohasidagi xotin qizlar bandligini 0,37 foizga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, faoliyat ko‘rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlar sonini bir foizga oshishi 0,35 foizga oshishini ta‘minlaydi. Umumiy hisobda ikkala ko‘rsatkichning bir vaqtda bir foizga oshishi xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tarkibida ishlayotgan xotin-qizlar sonini 0,72 foizga oshishiga olib keladi.

Prognoz natijalari keyingi besh yillikda mintaqada xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorlik faolligini oshishi va bandligini ta‘minlash bo‘yicha ijobiy

¹⁸ Manba: muallif ishlanmasi

natijalarga erishiladi. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida band bo'lgan xotin-qizlar soni 2030-yilga borib 110195 kishiga yetadi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tarkibida ishlayotgan xotin-qizlar soni 78613 kishiga yetadi. Aynan, ayollar egalik qilayotgan kichik biznes subyektlari soni 4821 birlikka, faoliyat ko'rsatayotgan yakka tartibdagi tadbirkor xotin-qizlar soni esa 9492 birlikka yetadi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosa, takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Dissertatsiyada xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida "xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik" kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik – bu bozorning yangi imkoniyatlarini kashf qilish, yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish, shuningdek, mavjud xizmatlarning sifati va samaradorligini oshirish orqali aholiga xizmat ko'rsatishni yaxshilash jarayonidir.

2. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning o'z-o'zini tartibga solish, raqobat muhiti shakllanishi, barqaror tadbirkorlikka erishish, tadbirkorlik ekotizimlari, kompetensiyalar, tadbirkorlik xulq-atvori shakllanishi, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, iste'molchilar talabini hisobga olish, xizmatlar sifatini oshirish, samarali marketing tadqiqotlari va brend strategiyasini joriy etish tamoyillari ishlab chiqildi.

3. Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanish xususiyatlari ishonch va qat'iylikni shakllanishi, kompetentlik va bilim, mijozga nisbatan mas'uliyat, tovarlar (xizmatlar)ni sotish va marketing mahorati, moslashuvchanlik va hayot muvozanati, ijtimoiy mas'uliyat va jamoaga xizmat ko'rsatish, moslashuvchanlik va chidamlilik bilan bog'liq jihatlari tavsifi aniqlandi.

4. Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish mexanizmi tadbirkorlik motivasiyasi, ta'lim olish imkoniyatlari, moliyaviy resurslar, me'yoriy-huquqiy muhit, raqamli kompetensiya, ijtimoiy normalar va texnologik transformatsiya bilan bog'liq shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va institusional omillarni guruhlash asosida takomillashtirilgan.

5. Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish turli yondashuv va usullar bilan qo'llab-quvvatlanadi, ularning har biri o'ziga xos afzalliklarga ega va o'ziga xos muammolarni bartaraf etishga ko'mak beradi. Shunga ko'ra, respublikada xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish tendensiyalari va modeliga xos jahonning yetakchi mamlakatlari tajribasidan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

4. Hududlar xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligining raqobatbardoshligini reyting baholash usuli xotin-qizlar tadbirkorligining raqobatbardoshlik salohiyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra tizimlashtirish va ularning o'zgarish dinamikasini vazn koeffitsiyentlarini aniqlash asosida takomillashtirildi.

5. Xizmatlar bozori kon'yukturasi tarkibi iqtisodiy subyektlar tomonidan shakllanadigan talab va taklif qonuni asosida muvozanatlashib, u ijobiy tendensiyaga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar asosida ta'minlanadi. Shu jihatdan, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlari xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligi holatini aniqlash va baholash maqsadida sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, hududlar xizmatlar sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini samarali rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

6. Xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish yondashuvi yangi tadbirkorlik tuzilmalari, innovatsion loyihalar, jamoat tashkilotlari bo'yicha ma'lumotlar bankini muntazam yangilab borish, xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish hamda xotin-qizlar o'rtasida frilanserlik faoliyatini rivojlantirish asosida takomillashtirildi.

7. Xotin-qizlarning tadbirkorlik faolligini oshirish, ijtimoiy kafolatlar tizimini yaratish hamda elektron platformalarni rivojlantirish, masofaviy bandlikni ta'minlash asosida ish beruvchi, onlayn birjalar va xodimlar o'rtasidagi uch tomonlama munosabatlarga yo'naltirilgan frilansing faoliyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi.

8. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishni nazarda tutuvchi davlat siyosati doirasida belgilangan vazifalarga muvofiq xotin-qizlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda ularning tadbirkorlik faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan dasturni ishlab chiqish taklifi asoslandi.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanish tendensiyalari hamda sohada xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi darajasini oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.01.2020.1.20.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАХА**

КАЗАХБАЕВ ЕРКИНБАЙ САРСЕН УЛЫ

**ПОВЫШЕНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ АКТИВНОСТИ
ЖЕНЩИН В СФЕРЕ УСЛУГ (на примере Республики Каракалпакстан)**

08.00.05 - Экономика отраслей сферы услуг

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Нукус – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/1qt2904.

Докторская диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Сауханов Жанибек Казиевич
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Матьякубов Умиджон Рахимович
доктор экономических наук, профессор

Таджиев Бехзод Умиджанович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,
доцент

Ведущая организация:

Самаркандский филиал Ташкентского государственного экономического университета

Защита диссертации состоится « 05 » мая 2025 года в 16⁰⁰ часов на заседании Научного Совета PhD.03/30.01.2020.120.06 по присуждению ученых степеней при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха по адресу: 230113, г.Нукус, ул.Ч.Абдилова 1. Тел./факс: (99861) 223-60-78, (998 61) 223-59-25; e-mail: info_karsu@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрирована под номером № 302). Адрес: 230113, г.Нукус, ул.Ч.Абдилова 1. Тел./факс: (99861)223-60-78, (99861)223-59-25; e-mail: info_karsu@edu.uz.

Автореферат диссертации разослан « 24 » мая 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 74 « 21 » мая 2025 года)



Н.У.Арабов

Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Р.Б.Утемуратов

Учсый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Б.С.Калмуратов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ

Актуальность и востребованность темы диссертации. Современные качественные преобразования в мировой экономике, в частности — в сфере услуг, сопровождаются тенденцией к интеллектуализации профессий на рынке труда. В этих условиях особое значение приобретает обеспечение занятости женщин, развитие их предпринимательской активности, расширение спектра современных интеллектуально-ёмких услуг, а также создание достойных и устойчивых условий труда. По данным международной статистики, в развитых странах доля сферы услуг в структуре валового внутреннего продукта достигает 65–80 %, при этом доля инвестиций, направляемых на научные исследования и инновационную деятельность, составляет около 3,0 %. Уровень занятости в сфере услуг достигает 70 %, из которых 40–45 % приходится на долю женщин.¹ Эти данные наглядно отражают роль женщин в развитии сектора услуг. Особенно актуальным становится повышение предпринимательской активности женщин на фоне стремительного развития цифровых технологий и искусственного интеллекта.

В современных реалиях приоритетным направлением становится обучение женщин востребованным профессиям, формирование новых рабочих мест в секторе услуг и создание благоприятной предпринимательской среды. Международная и национальная экономическая наука уделяет особое внимание вопросам эффективного развития сектора услуг и решению проблем занятости. В этом контексте особую актуальность приобретают исследования, направленные на совершенствование методологических основ развития женского предпринимательства в сфере услуг, комплексное изучение факторов, влияющих на предпринимательскую активность женщин, развитие организационно-образовательных механизмов подготовки женщин к современным профессиям, повышение их интеллектуального потенциала и активного участия в экономических процессах, совершенствование действующих механизмов поддержки женского предпринимательства.

В условиях построения «Нового Узбекистана» реализуются государственные программы, направленные на модернизацию сферы услуг, обеспечение гендерной занятости, создание новых рабочих мест и продвижение современных интеллектуально-ёмких видов услуг. В частности, поставлены масштабные задачи по «повышению в 3 раза объёма оказания услуг путём развития сфер услуг и сервиса в регионах и созданию 36 тысяч торгово-сервисных объектов»².

Для эффективного достижения этих целей целесообразно углублённое научное исследование вопросов развития интеллектуального и предпринимательского потенциала женщин в сфере услуг, а также совершенствование соответствующих экономических и институциональных механизмов.

¹ <http://stats.oecd.org/>

² Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № PF-158 «О Стратегии "Узбекистан – 2030"». <https://lex.uz/docs/6600413>

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии “Узбекистан – 2030”», Указом Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2021 года № УП-6318 «О дополнительных мерах по поддержке сферы услуг», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 16 июня 2020 года № ПП-4752 «О мерах по поддержке сферы услуг», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 7 марта 2024 года № ПП-122 «О дополнительных мерах по поддержке организации и развития женского предпринимательства», Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 апреля 2017 года № 246 «О дальнейшем развитии рынка услуг в сфере охраны труда», а также другими нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурно-просветительское развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Фундаментальные основы формирования экономики сферы услуг, развития инновационной экономики, эффективного использования ресурсов, становления конкурентной среды и обеспечения социально-экономической эффективности получили широкое освещение в работах зарубежных учёных, таких как Дж. М. Кейнс, М. Портер, Й. А. Шумпетер, К. Х. Хаксевер, Б. Р. Рендер, Р. С. Рассел, Р. Г. Мердик и другие³.

Научно-методологические аспекты развития сферы услуг и сервиса были исследованы зарубежными учёными, в том числе Т. Д. Бурменко, В. К. Романовичем, С. Н. Коробковой, В. И. Кравченко, С. В. Орловым, И. П. Павловой, Е. Е. Румянцевой и другими⁴.

